ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

MUZEY KOLLEKTSIYALARINI RAQAMLASHTIRISH, ELEKTRON KATALOGLASHTIRISH TIZIMINING AMALIYOTI VA ISTIQBOLLARI

Amanxodjayeva Gulnora Nigmatdjanovna
Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti
Muzeyshunoslik kafedrasi katta o‘qituvchisi
amanxodjayeva@mail.ru 99897/404-73-03

Annotatsiya:

Ushbu maqolada muzey kolleksiyalarini raqamlashtirish va elektron kataloglashtirish jarayonlarining ilmiy-amaliy ahamiyati, jahon tajribalari va O‘zbekistondagi holati tahlil qilinadi. Maqolada raqamlashtirishning huquqiy, texnik va axborot xavfsizligi masalalari bilan birga uning istiqbollari, innovatsion yondashuvlar va raqamli platformalar orqali muzeylar faoliyatini zamonaviylashtirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: muzey kollektsiyalari, muzey fondi, raqamlashtirish, elektron katalog, ma’lumotlar bazasi, axborot texnologiyalari, madaniy meros, vizual arxiv, raqamli muzey.

Аннотация:

В статье анализируется научное и практическое значение процессов оцифровки и электронной каталогизации музейных коллекций, мировой опыт и современная ситуация в Узбекистане. В статье рассматриваются правовые, технические и вопросы информационной безопасности оцифровки, а также ее перспективы, инновационные подходы и вопросы модернизации музейной деятельности посредством цифровых платформ.

Ключевые слова: музейные коллекции, музейный фонд, оцифровка, электронный каталог, база данных, информационные технологии, культурное наследие, визуальный архив, цифровой музей.

Abstract:

This article analyzes the scientific and practical significance of the digitization and electronic cataloging processes of museum collections, world experience and the current situation in Uzbekistan. The article discusses the legal, technical and information security issues of digitization, as well as its prospects, innovative approaches and issues of modernization of museum activities through digital platforms.

Keywords: museum collections, museum fund, digitization, electronic catalog, database, information technologies, cultural heritage, visual archive, digital museum.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi madaniy merosni saqlash va tadqiq qilish sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jahon muzeylari, jumladan, O‘zbekistondagi yetakchi muzeylar ham o‘z kolleksiyalarini raqamlashtirish va elektron kataloglar orqali ommaga taqdim etish bo‘yicha keng qamrovli loyihalarni amalga oshirmoqda. Ushbu maqolada ana shunday jarayonlarning ilmiy-amaliy asoslari, ularning muzeyshunoslikdagi ahamiyati va istiqboldagi yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Muzey kollektsiyasini raqamlashtirish — bu kollektsiyaga kiruvchi har bir eksponat haqidagi vizual, tekstual va texnik ma’lumotlarni raqamli formatda yig‘ish, qayta ishlash va saqlash jarayonidir. Bu jarayonda eksponatning yuqori aniqlikdagi tasviri, o‘lchami, materiali, yaratilish tarixi va boshqa tegishli ma’lumotlar to‘planadi. Muzey fondini raqamlashtirish orqali, kollektsiyalar saqlanishini ta’minlash ya’ni original eksponatning fizik xatarlardan himoya

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

qilinishiga erishiladi. Bundan tashqari, ilmiy tadqiqotlar uchun qulay axborot bazasini shakllantirilib, madaniy merosni keng jamoatchilikka taqdim etish imkoniyatlari ortadi. Shuningdek, inklyuzivlik va global yetuklikni ta'minlanadi. Elektron kataloglashtirish — muzey eksponatlarining ma'lumotlar bazasini yaratish va uni axborot tizimi orqali boshqarish jarayonidir. Bunday tizimlar muzey xodimlariga ham, tadqiqotchilarga ham eksponat haqidagi ma'lumotlarga oson va tizimlashgan tarzda murojaat qilish imkonini beradi. Raqamlashtirishning asosiy komponentlari:

Metama'lumotlar bazasi (eksponat nomi, yaratilish sanasi, muallif, material va h.k.).

- Multimedia ma'lumotlar (rasm, 3D modellar, audio/video izohlar).
- Qidiruv tugmasi va filtr funksiyalari (tematik, xronologik, geografik ko‘rsatkichlar bo‘yicha).
- Ifodalanuvchi interfeysi (muzey xodimlari va ommaviy foydalanuvchilar uchun).

Internet o‘z faoliyatini kichik, o‘zaro bog‘langan kompyuterlar tarmog‘i sifatida boshlagan. Bugungi kunda esa u nafaqat kompyuterlar, balki turli xil qurilmalarni o‘z ichiga olgan va ular orqali ma'lumot almashadigan va saqlaydigan Global tarmoqqa aylandi. Jahon tajribasiga ko‘ra **The British Museum**, **Louvre**, **Smithsonian Institution** singari yetakchi muzeylar o‘z raqamli kollektsiyalarini umumfoydalanuvchi portallar orqali taqdim etib, millionlab eksponatlarni onlayn va inklyuziv tarzda taqdim qilmoqda. Shu qatorda **Europeana**, **Google Arts & Culture** kabi platformalar raqamlashtirilgan kolleksiyalarni global miqyosda to‘plab, integratsiya qilmoqda. **Europeana — Yevropa madaniy merosning raqamli platformasi. Europeana** — Yevropaning turli muzey, kutubxona, arxiv va galereyalarida saqlanayotgan madaniy merosni raqamli formatda taqdim etishga ixtisoslashgan platforma hisoblanadi. U Yevropaning raqamli madaniy merosini to‘plash, safarbar etish va ommaga ochiq qilish maqsadida 2008 yilda Yevropa Ittifoqi tashabbusi bilan tashkil etilgan. Europeananing asosiy xususiyatlari:

- 50 milliondan ortiq raqamlashtirilgan obyekt (rasm, hujjat, kitob, video, musiqa, 3D eksponat va boshqalar);

- 3,500 dan ziyod madaniy muassasalar (British Museum, Louvre, Rijksmuseum va boshqalar) bilan hamkorlik;

- Interaktiv xizmatlar: virtual ko‘rgazmalar, ta'limiy resurslar, tarixiy vaqealar bo‘yicha xronologiyalar;

- Ochiq ma'lumot siyosati: ma'lumotlarni qayta ishlash va tadqiqot maqsadlarida erkin foydalanish imkoniyati;

- Madaniy xilma-xillikni saqlash: har bir mamlakatning milliy merosi alohida toifalarda berilgan.

Europeana platformasi muzeyshunoslar, tarixchilar, kutubxonachi va talabalar uchun boy raqamli resurs manbai bo‘lib, transmilliy tadqiqotlar olib borish imkoniyatini beradi.

Google Arts & Culture — Google kompaniyasi tomonidan 2011 yilda ishga tushirilgan madaniy va san'at asarlarini raqamlashtirishga qaratilgan global platforma hisoblanadi. Unda dunyo bo‘ylab minglab muzeylar va madaniy muassasalarning kolleksiyalari va ekspozitsiyalari virtual tarzda taqdim etilgan. **Platformaning asosiy xususiyatlari:**

- 2000+ hamkor tashkilot (MET, MoMA, Uffizi Gallery, Hermitage va boshqalar);
- Juda yuqori sifatdagi raqamli tasvirlar, jumladan, gigapixel formatda (asarlarni yuzlab marta yaqinlashtirish mumkin);
- Street View texnologiyasi orqali muzeylar va yodgorliklar bo‘ylab virtual sayohat qilish imkoniyati;

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

- AR/VR texnologiyalari asosida interaktiv sayohatlar va mobil ilovalar;
- Ta'limiy kontent: bolalar uchun maxsus o'yinlar, ta'limiy videolar, tarixiy kontekstdagi maqolalar.

Google Arts & Culture ta'lim muassasalarida vizual tadqiqotlar, san'at tarixi, muzeyshunoslik va dizaynerlik yo'nalishlarida foydalanish uchun muhim manba hisoblanadi. Bu platforma ham san'at asarlarini o'rganishda, ham ularni keng auditoriyaga yetkazishda o'ta samarali vositadir. **Europeana** ва **Google Arts & Culture** platformalari global miqyosda muzey va madaniy muassasalarning raqamli kontentlarini jamlash, targ'ib qilish va foydalanuvchilarga taqdim etishda yetakchi o'rin tutadi. Ularning amaliy qo'llanilishi nafaqat san'at va madaniyat sohasidagi tadqiqotlar uchun, balki muzeylarni raqamlashtirish, ularning ommaviyligini oshirish va ta'lim jarayonida samarali foydalanishda katta ahamiyatga egadir.

Ayni damda muzey fond ishida eng dolzarb masalalardan biri elektron ma'lumotlar bazasini yaratishdir. Fond ma'lumotlar bazasini yaratish – juda murakkab va uzluksiz ish. Elektron axborot tarqatuvchining mavjudligi muzey mutaxassislarini hisob hujjatlarini qog'ozga yozib rasmiylashtirishdan ozod qilmaydi, chunki ular yuridik kuchga ega. Lekin fond bo'limlari faoliyatini kompyuterlashtirish sezilarli darajada mehnat samaradorligini oshiradi, xatoliklarga yo'l qo'yish kamayadi, tayyorlanayotgan hujjatlarga o'zgartirish kiritish imkoni bo'ladi.

Ayniqsa, muzey to'plamlarini kataloglashtirishda kompyuterlashtirish usuli keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Uning yordamida kartotekalar olib borilib, ashyo haqidagi batafsil ma'lumotni kiritish mumkin. U turli belgilar bo'yicha biror- bir ashyo to'g'risida tez ma'lumot olishga yordamlashadi. Masalan, ilmiy ro'yxatlash raqami, yaratilish vaqti, tavsifdagi biron – bir so'z yoki gap bo'yicha ma'lumot olish mumkin. So'rov bo'yicha olinadigan ma'lumotlar ham matnli, ham grafik shaklda bo'ladi.

Tabiiyki, har bir muzey o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda fondlarda zamonaviy saqlash texnologiyalari va namoyish qilish usullarining eng yaxshilaridan foydalanishga intiladi. Bu yangi texnologiya samarasi o'laroq qog'ozli kartotekalar, kitoblarni elektron usulda, ya'ni ma'lumotlar bazasi tarzida uzatish tizimi dunyoga keladi.

Hujjatlarni doimiy ravishda hisobga olib borish jarayonida muzey buyumlarining ro'yxati shakllanadi, bu esa, o'z navbatida, ma'lumotlar bazasining asosini tashkil qiladi. Kundalik xizmat jarayonida xilma-xil muzeyga oid hujjatlar paydo bo'ladi. Ya'ni ilmiy pasport, topografik kartoteka, ilmiy tavsif kartochkalari, kataloglar, xilma-xil ro'yxatlar va hokazo.

Muzey fondi to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar bazasining kiritilishi natijasida ma'lumotlar tizimidan foydalanish doirasi kengayib boradi. Ma'lum bir yuqori darajadagi hajmga yetgandan so'ng talablar funksiyasi (majburiyati) ma'lumotlar bazasini qidirish natijalari bo'yicha sifatli va samarali ishlashni boshlaydi.

Muzeydagi fondlar to'g'risidagi ma'lumotlar hajmi ma'lum bir yuqori darajaga yetgach, qidirishning yangi imkoniyatlari ochiladi, ya'ni muzey xodimlarining izlanishlar olib borishi bilan bir vaqtda muzey ashyolariga behuda tegmaslik sharoiti yuzaga keladi. Muzey kollektsiyalarini raqamlashtirish va elektron kataloglarini yaratish nafaqat texnik jarayon, balki milliy madaniy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy o'rganish va xalqaro miqyosda targ'ib etishga xizmat qiluvchi strategik yo'nalish hisoblanadi. Bu sohadagi faoliyatni tizimli tashkil etish O'zbekiston muzeylari siyosatini xalqaro talablarga moslashtirish, shu bilan birga, mamlakatning madaniy boyligini global ilmiy va madaniy makonga integratsiyalash imkonini yaratadi. Elektron kataloglashtirish tizimining joriy etilishi O'zbekiston muzeylarining raqamli texnologiyalar asosida rivojlanishidagi dastlabki

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

qadamdir. Keyingi bosqichlarda virtual ko‘rgazmalarning keng joylashtirilishi va xalqaro muzey loyihalari bilan integratsiya muzey faoliyatining samaradorligini oshirishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Робертс Э. Учет и документация. Управление музеем: Практическое руководство. ИКОМ 2004. – 180 с.
2. Юренева Т.Ю. Музей в мировой культуре. – М.: Русское слово, 2003. – 435 с.
3. Садикова Н. Музейное дело в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1975. – 290 с.
4. Ҳабибуллаев Н.Ўзбек музейларининг истиқболи // Мозийдан садо. – Тошкент, 1999. – № 1-2. – Б. 12-13.;
5. Фатхуллаев Р. Музей ишида замонавий ахборот технологияси // Мозийдан садо. – Тошкент, 2002. – № 2 (14). – Б. 8-11.
6. Ўзбекистон музейларининг коллекциялари Google Arts&Cultureда https://acdf.uz/uz/news/kollekcii-muzeev-uzbekistana-na-google-artsculture